

QISHLOQ XO‘JALIGIGA MO‘LJALLANGAN YERLARDAN OQILONA FOYDALANISHNI TASHKIL ETISH YO‘LLARI

Soatov Oybek Ibragimovich,

“O‘zdavyerloyiha” Davlat ilmiy-loyihalash instituti mustaqil izlanuvchisi

ORCID: 0009-0009-9970-1248

Annotatsiya. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etishga yer tuzish tadbirlari orqali erishiladi. Maqola qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar holati va tavsifini yoritishga bag‘ishlangan. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning tarkibi tizimlashtirilgan va fermer xo‘jaliklari yerlaridan oqilona foydalanishni tashkil etish yo‘llari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: qishloq xo‘jaligi yerlari, qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi yerlar, oqilona foydalanish, tashkil etish, yer tuzish loyihasi, tizimlashtirish, samaradorlik, muvozanat.

Аннотация. Организация рационального использования земель сельскохозяйственного назначения достигается посредством землеустроительных мероприятий. Статья посвящена освещению состояния и характеристики земель сельскохозяйственного назначения. Систематизирован состав земель сельскохозяйственного назначения и раскрыты пути организации рационального использования земель фермерских хозяйств.

Ключевые слова: сельскохозяйственные земли, земли сельскохозяйственного назначения, рациональное использование, организация, землеустроительный проект, систематизация, эффективность, баланс.

Abstract. The organization of rational use of agricultural land is achieved through land management measures. The article is devoted to highlighting the state and characteristics of agricultural lands. The structure of agricultural lands has been systematized, and ways to organize the rational use of farmland have been identified.

Keywords: agricultural land, agricultural land, rational use, organization, land management project, systematization, efficiency, balance.


Kirish. Dunyoda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar maydoni 2000-yilga nisbatan 2 foizga, jumladan Yevropada 5,2 foizga, Amerikada 3,3 foizga va Osiyoda 1,1 foizga kamaygan. Ushbu yerlarining 32,9 foizini qishloq xo‘jaligi ekinlari va 67,1 foizini yaylovlar band qilgan. Yaylov yerlarida sug‘orma dehqonchilikni yo‘lga qo‘yilishi natijasida qiyoslangan yilga nisbatan ekin yerlar maydoni 2,3 foizga oshgan [4]. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning kamayishi va ekin yerlarining kengayishi bevosita ushbu yerlardan oqilona va samarali foydalanishni tashkil etishni ta‘minlaydigan yer tuzish tadbirlarini takomillashtirish zaruriyatini kuchaytiradi.

Natijalar va munozara. O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksiga ko‘ra “qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar – qishloq xo‘jaligi ehtiyojlari uchun berilgan yoki ana shu maqsadga mo‘ljallangan yerlardir. qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar foydalanish turiga ko‘ra – qishloq xo‘jaligi yerlariga va qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi yerlarga hamda suv bilan ta‘minlanish darajasiga ko‘ra – sug‘oriladigan yerlarga va sug‘orilmaydigan yerlarga bo‘linadi.” [1].

Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning amaliyotdagi tarkibi va qonunchilikka muvofiq ushbu yerlarni tarkibini quyidagicha tavsiflash mumkin (1-rasm).

O‘zbekiston Respublikasining davlat yer kadastri materiallarini o‘rganish 2024-yil 1-yanvar holati bo‘yicha respublika yer fondiga muvofiq qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar 26 132,2 ming ga yoki ushbu toifadagi yerlar 58,21 % teng ekanligini ko‘rsatadi [3].

Yer tuzish loyihalarini o‘zlashtirmasdan ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirayotgan korxonalar bilan yer tuzish ishlarini qo‘llayotgan qishloq xo‘jaligi korxonalarining iqtisodiy natijadorligini o‘zaro taqqoslash yer tuzish loyihalarini joriy etishning qanchalik zarurligini ko‘rsatib beradi.



1-rasm. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar tarkibi

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini samarali tashkil etish va tuproq unumdorligini oshirish muammolarini yechishda fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish bilan bog'liq yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni tashkil etish loyihasini ishlab chiqish va uni amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun ham, istiqbolda qishloq xo'jaligini rivojlantirish fermer xo'jaliklarida yerlardan oqilona foydalanish va muhofaza qilishni to'g'ri tashkil etish bilan uzviy bog'liqdir.

Yer tuzish loyihalari samaradorligi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlarda baholanadi. Yer tuzish loyihasining ushbu ko'rsatkichlarda baholanishi fermer xo'jaliklarida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini oqilona tashkil etilayotganligini har tomonlama asoslashga xizmat qiladi.

Shu o'rinda, "FranklinCovey" kompaniyasi asoschisi Stiven R. Kovining "samaradorlik muvozanatidir" [2] degan ta'rifini samaradorlikka berilgan eng to'g'ri izohlardan biri sifatida qabul qilish mumkin.

O'tgan davrdagi aksariyat olimlar va tadqiqotchilar samaradorlikni ishlab chiqarish faoliyati natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy ko'rsatkichlarda ifodalashga harakat qilishgan. Tadbirkorlar ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishda yuqori foyda olish qonuniyatiga tayanib ish ko'rgan. Oqibatda, tabiiy resurslar va ekologik muvozanatga katta zarar yetkazilib, iqlim o'zgarishi bilan bog'liq tuzatib bo'lmaz oqibatlarining yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Bugungi kunda, nafaqat qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini, balki iqtisodiyotning har bir tarmog'ini iqlim o'zgarishiga moslashtirish va uning oqibatlarini yumshatish dunyo hamjamiyati oldida turgan dolzarb muammolardan biri hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan holatlar amalga oshirilayotgan har qanday faoliyat natijalarini iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlik ko'rsatkichlari bo'yicha baholash zarurligini ko'rsatadi.

Shuning uchun ham bizning fikrimizcha, nafaqat yer tuzish loyihalarini ishlab chiqishda, balki barcha yo'nalishda loyihalar va biznes rejalarini ishlab chiqish bosqichida samaradorlik muvozanatidir degan tamoyilga to'liq tayanib ish ko'rishimiz zarur.

Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanishda muvozanatning buzilishi tuproq ustki qatlamida gumus miqdorining kamayishiga, tuproq sho'rlanishiga, yaylovlarda o'simlik qoplamasining yo'qolib ketishiga va yerlar degradatsiyasi jarayonlarining kengayib borishiga olib kelmoqda.


Bugungi kunda, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi ehtiyoji uchun dala shiypov va chorvachilik fermasini tashkil etish uchun ham sug'oriladigan yerlarni yer fondining boshqa toifasidagi yerlar tarkibiga o'tkazish talab etiladi.

Mazkur holat amaliyotda yerdan foydalanishda va yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish jarayonlarida muvozanatning buzilishiga imkon yaratmoqda.

Ishlab chiqarishni tashkil etishda ishchilar uchun qulay sharoit yaratish, texnikalarning ortiqcha harakatlanishini qisqartirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish va tuproqning unumdorligini saqlab qolish muvozanatni ta'minlashining asosiy mezon bo'lishi kerak.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, fermer xo'jaliklari yerlaridan oqilona foydalanishni tashkil etishning zamonaviy muammolarini ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy-huquqiy va ekologik yo'nalishlarga ajratish mumkin (2-rasm).

Qayd etilgan barcha muammolar ichida tuproq yuzasining yemirilishi, ifloslanishi, degradatsiyasi va tanazzuli bilan bog'liq holda tuproq unumdor qatlamining buzilishiga alohida e'tibor qaratish zaruriyati kuchayib, bu yerlarni muhofaza qilish doirasidagi ekologik qonun buzilishining oldini olishni birinchi darajaga chiqaradi.



2-rasm. Fermer xo'jaliklari yerlaridan oqilona foydalanishni tashkil etish muammolari

Xulosa, taklif va tavsiyalar. Olib borilgan tadqiqotlar natijalariga muvofiq har tomonlama muvozanatni ta'minlash maqsadida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etish mexanizmini takomillashtirishni quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin.

1. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan oqilona foydalanishni tashkil etish bo'yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirishda davlatning rolini kuchaytirish. Bunda, yer resurslarini boshqarish usullarini hududga moslashtirish, tuproqni o'rganish va baholash bilan bog'liq tadbirlarni kuchaytirish, yerlar degradatsiyasi va ifloslanishi jarayonlarining oldini olish va kamaytirish, tumanning istiqbolga mo'ljallangan yer tuzish chizmalarini ishlab chiqish bo'yicha ishlarni qayta tiklash, yer resurslaridan foydalanish va yer tuzishning bosh chizmalarini shakllantirish bo'yicha ishlarni qayta tiklash tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

2. Aqlli qishloq xo'jaligi tizimlarini joriy etish va foydalanishni jadallashtirish. Bunda, GPS-navigatsiyani joriy etish, qishloq xo'jaligi texnikalarini navigatsiya bilan jihozlash va joylashuvini kuzatib turish tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

3. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida axborotlashtirishdan

keng foydalanish. Bunda, ilg'or axborot texnologiyalarini qo'llash, zamonaviy dasturiy mahsulotlar va ilg'or ishlanmalardan foydalanishni yanada kengaytirish tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

4. Tashkiliy tadbirlarni faollashtirish. Bunda, normativ-huquqiy bazani rivojlantirish, yerning holati bo'yicha nazoratni va monitoring ishlarini kuchaytirish, yer tuzishni loyihalash va hududiy rejalashtirish ishlarini tashkil etish tadbirlarini amalga oshirish nazarda tutiladi.

5. Iqtisodiy tadbirlarni faollashtirish. Bunda, tuproq sifatining yomonlashganligi, yerdan nooqilona foydalanganlik uchun jarimalar, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanuvchilarga yetkazilgan zararlarni qoplab berish bo'yicha iqtisodiy javobgarlik choralari kuchaytirish nazarda tutiladi.

6. Ekologik tadbirlarni faollashtirish. Bunda, ekologik zararni aniqlash, ekologik sug'urtani tashkil etish, ekologik imtiyozlarni belgilash, xo'jalik-ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirishda ekologik boshqaruvni yo'lga qo'yish, yerdan foydalanishda tuproq ekologik salomatligi holatini baholash va ekologik sertifikatlashtirish tizimini rivojlantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish nazarda tutiladi.

ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining Yer kodeksi. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 30-apreldagi 598-I-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan. (<https://lex.uz/docs/152653>).

2. Kovi, Stiven R. Muvaffaqiyatli insonlarning yetti ko'nikmasi. "Ofset-print" MChJ, "Nihol" nashriyoti, Toshkent, 2022-yil, 230 bet.

3. O'zbekiston Respublikasi Yer resurslarining holati to'g'risida Milliy hisobotlar. – Toshkent, Kadastr agentligi ("Yergeodezkadastr" davlat qo'mitasi), 2024-yillar.

4. FAO. 2024. World Food and Agriculture – Statistical Pocketbook 2024. Rome. <https://doi.org/10.4060/cd2972en>.